O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(III QISM)

(2024-YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III QISM)

(2024-yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКА И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА”

«ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ-III)

(25- ноября 2024 г.)

САМАРКАНД – 2024

UO'K: 338.2:004(082)
I-52
KBK: 65.7

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024-yil 25-noyabr. Samarqand, SamISI, 2024. – 238 bet.

Nashr uchun mas'ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
G'.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo'nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo'llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo'llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-720-95-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

ўсишга туртки бўлган инсон капиталининг (НС) кириб келиши сезиларли силжиш бўлди. Ушбу эволютция ишлаб чиқаришга асосланган иқтисодиётдан билим ва инновацияларга асосланган иқтисодиётга ўтишни таъминламоқда.

Хулоса қилиб айтганда, олий таълим муассасалари инсон капиталини ривожлантириш учун киритилган сармояларнинг истеъмолчиси, ҳамда унинг жамғарилишини таъминлайдиган ихтисослашган муҳим тизими эканлигини кўрсатди. Олий таълимга киритилган сармоялар "таълим капитали"нинг вужудга келиши, унинг олий таълим хизматлари орқали инсонларга (талабаларга) кўчиб ўтиб ўз шаклини ўзгартириши, пировардида, "инсон капитали"га айланиши илмий нуқти назардан асосланди. Шу сабабли, таълимга киритилаётган сармоялар индивидуал, ижтимоий ва иқтисодий нуқтаи назардан фундаментал аҳамиятга эга эканлиги, қолаверса, инсон капиталини етарли даражада ривожлантирмай, иқтисодий ўсишга эришиш қийин, деган хулосага келинди.

Yashil iqtisodiyot va xizmar ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirish borasida ilmiy-nazariy yondoshuvlar

SamISI mustaqil tadqiqotchisi : M.M.Muminova

Annotatsiya: So‘nggi vaqtlardagi inqirozlar jahon iqtisodiyotining amaldagi rivojlanish modeli muayyan kamchiliklarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Xususan, ushbu model barqaror iqtisodiy o‘sishga ustuvor ahamiyat qaratib, ijtimoiy hamda ekologik muammolarni yetarlicha inobatga olmaslik muammosini namoyon qilmoqda. Bunday rivojlanish yo‘li atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning kamayishini kuchaytirib, uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanish tendensiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, maqolada yashil iqtisodiyot va xizmar ko‘rsatish korxonalari samaradorligini oshirishga nisbatan ilmiy-nazariy yondoshuvlarning naazariy tahlili keltirilgan .

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish , ijtimoiy, iqtisodiy, ekologiya, korxona, fan-texnika, institutsional, xalqaro, konventsiya,korxona, samaradorlik, ekologik barqarorlik, koalitsiya, iqtisodiy o‘sish, yashil soliqlar, yashil innovatsiyalar.

Аннотация: Недавние кризисы показали, что существующая модель развития мировой экономики имеет определенные недостатки. В частности, эта модель делает акцент на устойчивом экономическом росте и недостаточно учитывает социальные и экологические проблемы. Такой путь развития усугубляет деградацию окружающей среды и истощение природных ресурсов, негативно влияя на тенденции устойчивого развития

в долгосрочной перспективе. Поэтому в статье представлен теоретический анализ научно-теоретических подходов к повышению эффективности зеленой экономики и предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: зеленая экономика, услуга, социальный, экономический, экология, предприятие, наука и технологии, институциональный, международный, конвенция, предприятие, эффективность, экологическая устойчивость, коалиция, экономический рост, зеленые налоги, зеленые инновации.

Abstract: Recent crises have shown that the current development model of the world economy has certain shortcomings. In particular, this model emphasizes sustainable economic growth and does not sufficiently take into account social and environmental problems. Such a development path exacerbates environmental degradation and depletion of natural resources, negatively affecting sustainable development trends in the long term. Therefore, the article presents a theoretical analysis of scientific and theoretical approaches to improving the efficiency of green economy and service enterprises.

Key words: green economy, service, social, economic, ecology, enterprise, science and technology, institutional, international, convention, enterprise, efficiency, environmental sustainability, coalition, economic growth, green taxes, green innovations.

Yashil iqtisodiyot masalasiga hozirgi kunda tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda, ammo hali ham umumiy qabul qilingan biror aniq ta’rif mavjud emas.

Devid Pirs “Yashil iqtisodiyot” atamasidan birinchi foydalanuvchilardan biri hisoblanadi. Uning 1989-yilda Anil Markandya va Edward Barbier bilan hamkorlikda yozilgan va nashr etilgan “Yashil iqtisodiyot uchun reja” (Blue print for a Green Economy) kitobi iqtisodiyotning ekologik va barqaror rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan. Ushbu asarda mualliflar ekologik muammolarni hal qilish uchun iqtisodiy tamoyillar va vositalardan qanday foydalanish mumkinligini muhokama qilishadi[76] va ekologik barqarorlikni iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlashadi[77].

2006-yilda Buyuk Britaniya hukumati buyurtmasiga asosan britaniyalik iqtisodchi Nikolas Stern tomonidan nashr etilgan hisoboti “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Stern hisoboti”, rasman “Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rib chiquvchi” (Stern Review on the Economics of Climate Change) sifatida tanilgan. Ushbu hisobot iqlim o‘zgarishining iqtisodiy baholanishi va uning jahon iqtisodiyotiga ta’siri sohasida eng muhim hujjatlardan biriga aylangan.

[76] Брославский Л. И. Техническое регулирование и стандартизация качества продукции и безопасности окружающей среды. Законы и реалии России, США и Евросоюза: монография. // Москва: Проспект, 2017. – 192 с. – ISBN 978-5-392-25289-3.

[77] Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blue print for a Green Economy. // 1989. DOI: https://www.iied.org/5008iied.

Stern hisobotida inson faoliyati tufayli yuz berayotgan global iqlim o‘zgarishining jahon iqtisodiyotiga ta’siri tahlil qilinadi. Hisobot xulosasiga ko‘ra, hech qanday choralar ko‘rilmaganda (ya’ni, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmaganda), kelajakda yuz beradigan o‘zgarishlarning narxi ularni oldini olish uchun sarflanadigan narxdan ancha yuqori bo‘ladi. Stern “barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritish nafaqat iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishga yordam beradi, balki uzoq muddatda iqtisodiy foyda keltiradi”, deb ta’kidlaydi[78].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturining (United Nations Environment Programme (UNEP)) 2009-yildagi hisobotida aytilishicha, ““Yashil iqtisodiyot” – inson farovonligini uzoq muddatli istiqbolda oshiradigan va kelajak avlodlarni jiddiy ekologik xavf-xatarlar yoki ekologik tanqislikka duchor qilmaydigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish bilan bog‘liq iqtisodiy tadbirlar tizimidir”[79].

Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi (koalitsiya – bu umumiy maqsadga erishish yoki birgalikda harakat qilish uchun tashkil etilgan ittifoq, tashkilot yoki birlashma) quyidagi ta’rifni beradi: ““Yashil iqtisodiyot” – bu sayyoramizning ekologik cheklovlari sharoitida yuqori hayot sifatini ta’minlaydigan moslashuvchan iqtisodiyotdir”[80].

Jinsheng Jeyson Chju, Ruitian Chjan va Kesone Kanhaliklarning ta’kidlashicha, ““Yashil iqtisodiyot” – iqtisodiy faoliyatning ekologik barqarorlikka zarar yetkazmasligini talab qiladi va moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadigan ekologik zararni oldini olish choralarini o‘z ichiga oladi”[81].

Michael Jacobsning bergan ta’rifiga ko‘ra, “Yashil iqtisodiyot” – resurslarning kamayishi va atrof-muhitga yetkazilgan zararni minimallashtirishga intiladi, bu orqali atrof-muhitga katta zarar yetkazmasdan barqaror, uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan”[82].

Bizning fikrimizcha, “Yashil iqtisodiyot” – bu odamlarning farovonligini oshirish va kelajak avlodlarga ekologik xavflar yoki resurs tanqisligini yuklamasdan uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ekologik va iqtisodiy faoliyat tizimidir.

---

[78] Nicholas Herbert Stern. The Economics of Climate Change // The Stern Review, Cambridge University Press. 2006. – 579 b. ISBN:9781139930765, 1139930761

[79] Глобальный «зеленый» новый курс: доклад UNEP. – 2009. – март. – 42 с – URL: org/files/inventory/ UNEP90_RUS. pdf (дата обращения: 30.01.2014). www.uncclearn.org/sites/www.uncclearn.

[80] The Green Economy Pocketbook: The case for action. – London : Green Economy Coalition, 2012. – 58 p. www.cawater-info.net/green-growth/files/green-economy-pocketbook.pdf.

[81] Jinsheng Jeyson Chju, Ruitian Chjan, Kesone Kanhalik va boshqalar // Green economy studies amongst the global climate change challenge between 2016 and 2022: a bibliometric review. Frontiers. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fevo.2023.1168437/full

[82] Jacobs M. Green Growth: Economic Theory and Political Discourse / Michael Jacobs. – London: Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, Centre for Climate Change Economics and Policy, 2012. https://www.cccep.ac.uk/wp-content/uploads/2015/10/WP92-green-growth-economic-theory-political-discourse.pdf

Mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorida “O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib belgilangan”[83].

Bizningcha, ushbu chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni ta’minlash, energetika samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ular mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar ryespublikaning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi asosiy qadamlarini belgilab, kelajak avlodlar uchun sog‘lom va toza atrof-muhitni ta’minlash imkonini yaratadi.



1-rasm. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini ko‘rsatuvchi model[84]

[83] 2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli Qarori. lex.uz/uz/docs/-6303230.

[84] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini ko‘rsatuvchi model tasviri 1-rasmda keltirilgan. O‘ng tomondagi rasmda uchta doiradan iborat bo‘lib, u ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy o‘sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o‘rtasida muvozanatga erishishga asoslangan. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, ushbu model zaif hisoblanadi, chunki unda iqtisodiy manfaat ekologik va ijtimoiy jihatlardan ustun keladi, bu esa muvozanatning buzilishiga olib keladi. Chap tomondagi rasm – yangi, kuchli model bo‘lib, unda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar ham o‘zaro bog‘liq va bir-biriga bo‘ysunadi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda atrof-muhit muammolarini iqtisodiy, siyosiy, ekologik va ijtimoiy sohalarga keng qamrovli va kompleks yondashuvni ishlab chiqish, shu bilan birga, barqaror rivojlanish va “yashil iqtisodiyot” elementlarini integratsiya qilish asosiy harakatlantiruvchi omillardan biriga aylandi[85].

Bizning fikrimizcha, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan asosiy tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu elementlarning tasnifi 1.2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. Barqaror rivojlanishga ta’sir qiluvchi “yashil iqtisodiyot” elementlari[86]

Energiya samaradorligi. Energiya iste’molini kamaytirish va undan samarali foydalanishni ta’minlaydigan texnologiyalar hamda vositalar

[85] https://donampa.ru/images/sbornik_6-7112024.pdf
[86] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

majmuasi. Ushbu chora-tadbirlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan.

Barqaror transport. Atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan hamda energiyani samarali ishlatadigan transport tizimlari. Bunga elektr transport vositalarini keng joriy etish va jamoat transportini rivojlantirish kiradi, bu esa ekologik xavfsiz hamda energiya tejamkor harakatlanishni ta’minlaydi[87].

“Yashil” soliqlar va moliyaviy vositalar. Atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan moliyaviy mexanizmlar majmuasi. Ushbu vositalar orasida uglerod solig‘i alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u ifloslantiruvchi chiqindilarni kamaytirish hamda uglerod dioksid emissiyalarini cheklashni rag‘batlantirish maqsadida joriy etiladi. Shuningdek, ekologik soliqlar va subsidiyalar ifloslanish darajasini pasaytirish hamda barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. “Yashil” obligatsiyalar esa ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan moliyaviy vosita sifatida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Suv resurslarini oqilona boshqarish. Suvni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan samarali choralar majmuasi. U qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish, sanoatda suvni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish hamda shahar infratuzilmasida suv tejovchi texnologiyalarni tatbiq etishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv suv tanqisligini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

“Yashil” o‘sish. Iqtisodiy o‘sishning ekologik jihatdan barqaror modeli bo‘lib, u iqtisodiy faoliyatni tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlash bilan uyg‘un holda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu model qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, jumladan, quyosh, shamol, gidroenergetika va boshqa muqobil manbalardan foydalanib energiya ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

“Yashil” innovatsiyalar. Ekologik toza texnologiyalar va mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan innovatsion yechimlar majmuasi bo‘lib, ular energiyadan samarali foydalanish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantiradi. Ushbu innovatsiyalar atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarni rivojlantirish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

“Yashil” binolar. Ekologik toza materiallar va ilg‘or texnologiyalar asosida quriladigan, yuqori energiya samaradorligi hamda minimal uglerod chiqindilarini ta’minlaydigan inshootlar. Bunday binolar qurilish va ekspluatatsiya jarayonida tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan yondashuv asosida barpo etiladi.

[87] https://staff.tiiame.uz/storage/users/800/articles/jWt6rSa0sYhb5g7lvejao5duS7Ufaqjp7GvFjecu.pdf

Bu elementlar “Yashil iqtisodiyot”ning asosini tashkil etib, barqaror rivojlanishga erishishda[88], shuningdek, uzoq muddatli ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi[89].

Xizmatlar sohasida samaradorlikka erishish har bir subyektlar faoliyatining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. U xizmat ko‘rsatish jarayonining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Bugungi raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida “samaradorlik” tushunchasi, daromad olish, xarajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o‘sishi, fond qaytimi kabi iqtisodiy daromadlilikning tabiatiga mos kelib, baho, foyda, rentabellik kabi tushunchalar asosida natijadorlikni ifodalaydi. Samarali ishlash degani o‘z mohiyatiga ko‘ra, mo‘ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, xizmat ko‘rsatish xarajatlari va yo‘qotishlarni kamaytirish, mavjud quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ko‘rsatayotgan xizmatning sifatini yaxshilashni anglatadi. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, sohani raqamlashtirish, modernizasiyalash, diversifikasiyalash chora tadbirlari zarurligini ham belgilaydi. Samara – bu, ko‘rsatilayotgan xizmatdan olinadigan, foyda va daromad hajmini oshirish, xizmatlar tannarxini kamaytirish, sifatsiz xizmat ko‘rsatishni kamaytirish yoki umuman u yoki bu tadbirni amalga oshirish bilan bog’liq bo‘lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda xizmat ko‘rsatish samarasini, pul shaklida esa xizmat ko‘rsatish iqtisodiy samarani tavsiflaydi. Buning uchun ushbu so‘zning lug’aviy ma’nosini karab chikamiz. O’zbek tilining 5 jildlik izohli lug’atida "samara" so‘ziga kuyi dagicha izoh berilgan. Ushbu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib, natija, xosil, foyda, tushunchalarini anglatishi ko‘rsatib o‘tilgan (Ensiklopediya, 2006).

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. Bu borada bugungi kunda Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishni belgilab bergan “O’zbekiston – 2030” strategiyasida ham aniq faoliyat darajasini aniqlovchi mezon sifatida “2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari”ni aniqlash maqsadlarini bajarilishi normativi sifatida bayon qilingan. Mazkur ko‘rsatkich “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega. “Samarador” so‘zining ma’nosi “samarali, foydali” so‘zlardan iborat bo‘lib, "katta samara, foyda keltiradigan, sermahsul, yaxshi natija beradigan" deb izoh berilgan (Ensiklopediya, 2006). Xuddi shunday izoh "samaradorlik" so‘ziga ham keltirilgan. O’zbek tilining izohli lug’atida e’tirof etilishicha, ushbu so‘zning ma’nosi "samarali, foydali bo‘lishlik; foydalilik" tushunchalaridan iborat

[88] Martinis A., Mazi S., Minotou C. Sustainable development and environmental education in Natura 2000 areas. A vision of the mountain of Pantokratoras for Corfu and the local community // Proceedings of the 2015 IEEE 15th International Conference on Environment and Electrical Engineering (EEEIC). – 2015. – DOI: 10.1109/EEEIC.2015.7387972.

[89] Green Economy Coalition. The 5 Principles of Green Economy, 7 June 2020. Available at: https://www.greeneconomycoalition.org.

(Ensiklopediya, 2006). Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, samaradorlik tushunchasi asosan naflilik, foydalilik va natijaviylik kabi tushunchalarni ifoda etadi.

Samaradorlik chora sifatida ko‘plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo‘jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o‘zining xo‘jalik, ilmiy-texnik va investision siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

“Samaradorlikning iqtisodiy mazmuni sifatida har doim ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan unga avanslangan resurslar, mablag’lar yoki qilingan xarajatlar o‘rtasidagi nisbat tushuniladi” (Shodmonov, Raxmatov, 2021).

“Samaradorlik-iqtisodiy o‘sishni intensiv omillar evaziga taminlovchi va xarakterlovchi muhim iqtisodiy kategoriya bo‘lib hisoblanadi” (Mirzayev, Pardayev, 2014).

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda nisbatan tor ma’noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlar (mavjud resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi.

Ushbu jarayonda xarajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi. Shu bilan birga xizmatlar sohasida faoliyat natijadorligiga erishishda ijtimoiyiqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. Shunday ekan, ijtimoiyiqtisodiy samaradorlikda bir vaqtning o‘zida qilingan xarajatlar samaradorligini oshirish bilan birga shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog’lig’ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishi kabi jarayonlarni ifodalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatishda xam iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi va bunda xizmat ko‘rsatishda daromadning(foydaning) o‘sishi, subyektlarning iqtisodiy natijadorligining ortishi bilan birga ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini ham beradi.

Tahlil natijalaridan malumki, iqtisodiy samaradorlik va uning asosiy ko‘rsatkichi - foyda (daromad) o‘z-o‘zidan oshib bormaydi. Turli xizmatlar sohasida xam boshqa tarmoq soxalar singari korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud quvvatlardan unumli foydalanish, shuningdek ortiqcha sarf xarajatlarning bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi jarayonlaridan foydalaniladi. Bunda vaqt omili, ya’ni samaradorlikka (malum qisqa yoki uzoq)muddatlarda erishishni mo‘ljallash asosiy o‘rinda turadi.

Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, soxani qayta qurollantirish va modernizasiya qilish xamda ajratilayotgan mablag’larni tejash yo‘li bilan xam ko‘paytirishi mumkin. Uzoq muddatli davrda esa korxonaning bozordagi o‘rnini oshirib

borish,raqobatni o‘rganish, bankrotga uchrashning oldini olish kabi malum vaqtni talab qilishi bilan ifodalanadi.

Xizmat ko‘rsatish soxasi samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini o‘rganishda “xizmat”ning alohida iqtisodiy kategoriya sifatida muhim jihatlarini (xususiyatlarini) hisobga olish, zarur deb hisoblaymiz. Jumladan,

Birinchidan, “xizmat”ni ushlab ko‘rish, saqlash, tatib ko‘rishning iloji yo‘q, xatto uni bir joydan ikkinchi joyga tashib ham bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, “xizmat”larni yaratishda ishlab chiqarishdagidek “mehnatni sarflash va uni istemol qilish jarayoni o‘rstasida vaqt jihatidan farq bo‘lmaydi”, yani xizmatlarda ikkala jarayon ayni bir vaqtda amalga oshadi.

Uchinchidan, xizmatlarning “miqdori”, “sifat darajasi” faqat istemol jarayonida sodir bo‘ladi, u to‘g’risida oldindan aniq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyati mavjud emas.

To‘rtinchidan, “xizmat”lar insonning aqliy, ruhiy, manaviy holatini rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Beshinchidan, “xizmat” ko‘rsatishda inson bevosita insonga tasir ko‘rsatadi, ammo ushbu jarayonda tabiat yaratgan noz-nematlarga tasir etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Nicholas Herbert Stern. The Economics of Climate Change // The Stern Review, Cambridge University Press. 2006. – 579 b. ISBN:9781139930765, 1139930761

2. Глобальный «зеленый» новый курс: доклад UNEP. – 2009. – март. – 42 с – URL: org/files/inventory/ UNEP90_RUS. pdf (дата обращения: 30.01.2014). www.uncclearn.org/sites/www.uncclearn.

3.The Green Economy Pocketbook: The case for action. – London : Green Economy Coalition, 2012. – 58 p. www.cawater-info.net/green-growth/files/green-economy-pocketbook.pdf.

4.Jinsheng Jeyson Chju, Ruitian Chjan, Kesone Kanhalik va boshqalar // Green economy studies amongst the global climate change challenge between 2016 and 2022: a bibliometric review. Frontiers. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/fevo.2023.1168437/full

5.Jacobs M. Green Growth: Economic Theory and Political Discourse / Michael Jacobs. – London: Grantham Research Institute on Climate Change and the Environment, Centre for Climate Change Economics and Policy, 2012.

MUNDARIJA:

III QISM		
I SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI		
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich	O’ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI	5
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI TASHKIL ETISH BO’YICHA HARAJATLARNI KAMAYTIRISH YO’LLARI	9
Musurmonova Muxlisa Samandar qizi Ortiqov Farmonboy Raxmon o‘g‘li	THE IMPORTANCE OF SERVICE SECTORS AND MEASURES TO IMPROVE IT IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO THE DIGITAL ECONOMY	14
Maxmudov Laziz Ubaydullayevich Madrimova Aziza Shuxrat qizi	XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	17
A.X.Salamov	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISTE’MOL KREDITLARI XIZMATINING AHAMIYATI	21
Z.I.Ravshanov	XIZMAT KO‘RSATISH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI MODERNIZATSIYALASH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	25
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH	30
Аҳмаджон Таниев	ИННОВАЦИЯ ВА СЕРТИФИКАЦИЯ: ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ТЕНДЕНЦИЯЛАР	33
Халикова Лола Назаровна Ғаниев Ғайратжон Ғуломиддинович	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА НИСБАТАН ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИ ТАЛАБ ЭТАДИ	41
R.I.Pardayev	TURISTIK XIZMATLAR SIFATINING IQTISODIY MAZMUNIGA NAZARIY YONDOSHUVLAR	45
Халимов Шахбоз Халимович	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ШАРОИТИДА ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ	52

	МАСАЛАЛАРИ	
II SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARAQQIYOTINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI		
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Mexriddinov Fahriddin Asqar o‘g‘li	THE PROBLEM OF UNEMPLOYMENT IN THE ECONOMIC AND SOCIAL LIFE OF COUNTRIES AND STRATEGIES IN ITS SOLUTION	58
Рузикулова Нилуфар	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЯНГИ ТРЕНДЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	63
Артикова Шохида Ильясовна	ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ	67
Boymurodov Hayitmurod Baxtiyor o‘g‘li Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	O‘ZBEKISTONDA AHOLINI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI	71
R.I.Pardayev	TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI	74
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich Shukurov Tohirjon Izzatullo o’g’li Tleymuratov Bahadir Genjemuratovish	XIZMAT KO’RSATISHDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	78
E.Shavqiyev S.Raximova	RAQAMLI IQTISODIYOTIGA O’TISH SHAROITIDA RESPUBLIKADA SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING O’RNI VA AHAMIYATI	82
III SHO’BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI		
Джумаев Аскар Хайдарович	ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	87
Axrorova Munavvar	SAMARQAND VILOYATIDA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARINING O’ZIGA XOS JIHATLARI	93
Artikova Shoxida Ilyasovna Ergasheva Laylo	GLOBALLASHUV JARAYONINING ISHCHI KUCHI BOZORIGA TA’SIRI	97

Farxod qizi		
Ulug‘murodov F.F. Qarshiyev A.S. Shodiyev F.Q.	AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH	101
Badirova Gavhar Shakirjon qizi	OPPORTUNITIES FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT IN REGIONS THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES	105
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich Maxmanazarov Sarvar Farxod o’g’li	TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI	108
Ж.Б.Ахтамов	ЖАМИЯТДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ҚАРОР ТОПТИРИШДА, ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ТУТГАН ЎРНИ	112
Musurmonova Muxlisa Samandarovna Danayeva Zulhumor Abdusodiq qizi	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	116
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	MIJOZLARGA LOGISTIKA XIZMATLARI KO‘RSATISH VA BIZNES MODELLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI	120
Ғаниев Ғайратжон Ғуломиддинович	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ ИЖТИМОИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ МУҲИМ ТАРМОҒИ	125
Amirxon Anvarov Umidjon o’g’li	THE ROLE OF FINTECH IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY	128
Usmonov Murodjon Boyqobilov Ilyos	SAMARQAND VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA TAYYORLASH TAMOYILLARI	131
IV SHO’BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI		
Qarshiyev Avazbek Sa’dullayevich Shodiyev Fazliddin Qalandar o‘g‘li Shavqiyev Erkin	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH STRATEGIYALARI VA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI	136
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Sherzodova Diyora Sherzod qizi	RESPUBLIKAMIZDA TA’LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	140
Z.I.Ravshanov	OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	144

Artikova Shoxida Ilyasovna Qodirboyev Shohzod Anvar o'g'li	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	149
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI	152
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich Baxtiyorova Ruxshona Ikromjon qizi	"YASHIL ENERGETIKA" BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA	155
V SHO'BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOSHQA TARMOQLAR VA SOHALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI		
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li Tleymuratov Bahadir Genjemuratovish	ZIYORAT TURIZMI TARIXI VA UNING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI	159
Djuraboyeva Durdona Baxtiyor qizi Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	O'ZBEKISTONDA "YASHIL IQTISODIYOT"NI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI	165
Aliqulov Hazrat Amirqulovich	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI KREDITLASHNI ME'YORIY- HUQUQIY ASOSLARI	169
Xasanova Yulduz	INSON KAPITALI VA TA'LIM XIZMATLARI: O'ZBEKISTON ILMIY VA INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH GAROVI	179
Po'latova Shahnoza Abdirashitovna	OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA YASHIL MARKETING KONSEPSIYASINI QO'LLASH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	182
Жумақулов Озодбек	ИНВЕСТОР УЧУН ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОР ҚАБУЛ ҚИЛИШ ЭНГ МУКАММАЛ ВА МАСЪУЛИЯТЛИ ТАДБИРЛАРДАН БИРИДИР	187
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	TADBIRKORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI, TAVSIFI VA TASNIFLASH	191

Zaripov Alimjon Utkir o‘g‘li		
Mutalova Manzura Abdushukur qizi	THE ROLE OF DIGITAL TRANSFORMATION IN SERVICE INDUSTRIES AND ITS IMPACT ON HUMAN RESOURCE MANAGEMENT	195
Пулатова Гулнара Тулановна	DATA-DRIVEN ПОДХОД В УПРАВЛЕНИИ ОТРАСЛЕВЫМИ ИННОВАЦИЯМИ: РОЛЬ АНАЛИЗА ДАННЫХ В ПРИНЯТИИ РЕШЕНИЙ	202
Боймуротова Маржона Шавқиев Эркин	ЎЗБЕКИСТОНДА САНОАТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАРИ ВА СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШЛАРИ	208
Ахтамова М.Э	КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ: ЗАЛОГ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ УЗБЕКИСТАНА	212
Shavqiyev Erkin Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISHI	217
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Madrimova Aziza Shuxrat qizi	SAVDO XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	221
С.Ў.Ҳусенов	ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ИНСОН КАПИТАЛИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ	225
M.M.Muminova	YASHIL IQTISODIYOT VA XIZMAR KO‘RSATISH KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH BORASIDA ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR	231
M.M.Muminova	YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI KORXONALARNI RIVOJLANTIRISHNING VAZIFALARI VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	240

«INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO'PLAMI

(III QISM)

(2024-yil 25-noyabr)

"STAP-SEL" MChJ. nashriyoti.
Samarqand - 2024.

ISBN: 978-9910-9795-7-6

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
© **"STAP-SEL" MChJ.** nashriyoti,
Samarqand.

Qog'oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog'ozi.
"Times New Roman" garniturasi.
Nashr bosma tabog'i 14,87
Buyurtma № 0075A/23. Adadi 25 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo'limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko'chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-720-95-6

